

KNAUFINSULATION

*Barcha turdagi binolar va inshootlar
uchun bazalt asosidagi*

**MINERAL TOLALI
ISSIQLIK VA TOVUSH
IZOLYATSIYASI**

Katalog 2026



Build on us.

KNAUF INSULATION VA KNAUF GROUP O'ZBEKISTONDA VA DUNYODA

Bosh qarorgohi Belgiyaning Vize shahrida joylashgan Knauf Insulation, 40 yildan ortiq tajribaga ega bo'lgan **dunyodagi yetakchi issiqlik izolyatsiya materiallari ishlab chiqaruvchilardan biri bo'lib**, Knauf Group kompaniyalar guruhiga kiradi.


Knauf Insulation kompaniyasi 40 dan ortiq mamlakatlarda faoliyat yuritadi, 6000 ga yaqin xodimlari bor va 15 mamlakatda 28 ta ishlab chiqarish maydonchalarini boshqaradi. Knauf Insulation aylanmasi 2024-yilda 2,5 milliard yevrodan oshdi.

Biz 90 yildan ortiq vaqt davomida qurilish materiallari va tizimlarini ishlab chiqaradigan xalqaro oilaviy kompaniyalar guruhi bo'lgan Germaniyaning Knauf guruhining bir qismimiz. Kompaniyalar guruhi barcha qit'alardagi 90 dan ortiq mamlakatda 320 dan ortiq ishlab chiqarish maydonchalari va savdo tashkilotlarini boshqaradi hamda gips asosidagi qurilish materiallari va tizimlari, energiya tejamkor izolyatsiya va shift tizimlarini ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. 1932-yilda tashkil etilgan Knauf guruhi 2024-yilda savdo hajmini 15,6 milliard yevroga yetkazdi va kompaniya tarkibida 43,5 mingdan ortiq xodim bor edi.

Knauf Group O'zbekistonda 25 yildan ko'p faoliyat yuritadi, Buxoro va Farg'onada uchta gips zavodi bor. 2025-yilda Knauf Insulation Markaziy Osiyodagi faoliyatini kengaytirib, Toshkentda bazalt asosida mineral tolali issiqlik izolyatsiyasini ishlab chiqarish zavodini ishga tushirdi.



Belgiyaning Vize shahridagi, Knauf Insulation bosh qarorgohi va ishlab chiqarish maydonchasi



KNAUF INSULATION - ISSIQLIK IZOLYATSIYA YECHIMLARI SOHASIDA ISHONCHLI HAMKORINGIZ

Knauf Insulation'ni tanlab, siz eng yaxshi Yevropa amaliyotlariga asoslangan, issiqlik izolyatsiya materiallarining dunyodagi yetakchi ishlab chiqaruvchilaridan birining tajribasini tanlaysiz. Biz sovuq va issiq sharoitlarda yuqori haroratdan samarali himoya, yong'inga qarshi himoya, shuningdek, barcha turdagi binolar uchun zamonaviy talablarga javob beradigan akustik (tovush yutish) qulaylikni ta'minlaydigan sifatli va xavfsiz yechimlarni taklif etamiz.

Biz shunchaki tadbirkor - hamkor emasmiz. Mahalliy hamjamiyatning faol a'zosi sifatida biz qurilish me'yorlarini takomillashtirish, energiya sarfini kamaytirish va qurilish standartlarini yaxshilash uchun va yordam berish maqsadida o'z bilimlarimiz bilan o'rtoqlashamiz.



Knauf Insulation butun dunyo bo'ylab mineral tolali issiqlik izolyatsiyasini ishlab chiqarish bo'yicha **40 yildan ortiq tajribaga ega bo'lib**, bu ishlab chiqarish va innovatsiyalar sohasida tengsiz bilim darajasini ta'minlaydi. Knauf Insulationing **Yevropada o'zining ixtisoslashtirilgan ilmiy-tadqiqot markazi** mavjud, mazkur markaz doimiy innovatsiyalarni ta'minlaydi va Toshkentdagi zavodning issiqlik izolyatsiya ishlab chiqarish sohasidagi eng so'nggi yutuqlardan foydalanishini kafolatlaydi.

Bizning yechimlarimiz noyob yong'inga qarshi xususiyatlarga, shuningdek, ajoyib issiqlik va akustik xususiyatlarga ega bo'lib, turli maqsadlarga mo'ljallangan bino va inshootlarni yangi qurilishi, qayta qurish, kapital va joriy ta'mirlashda binolarning turli xil tuzilmalarida issiqlik va tovush o'tkazmaydigan qatlam sifatida qo'llash uchun tavsiya etilgan.



Knauf Insulation - bu **O'zbekistondagi** ishlab chiqarish quvvatlari Toshkent shahrida joylashgan **yagona xalqaro issiqlik izolyatsiyasi brendi bo'lib**, u qurilish maydonlariga ishonchli va tezkor yetkazib berishni ta'minlaydi.

Knauf Insulation mineral tolali issiqlik izolyatsiya Toshkent zavodida **zamonaviy Yevropa uskunalari va elektr eritish texnologiyasidan** foydalangan holda ishlab chiqariladi, bu esa barqaror sifat hamda ishlab chiqarish va xavfsizlikning Yevropa standartlariga muvofiqligini kafolatlaydi. Bizning mutaxassislarimiz ishlab chiqarilgan materiallar sifatini muntazam ravishda nazorat qilishni ta'minlaydilar.



QULAY HAYOT UCHUN ISSIQLIK IZOLYATSIYASI



Ko'plab talab va sinovlarlar uchun yechim

Mineral tolali issiqlik izolyatsiyasi o'z xususiyatlarining noyob uyg'unligi tufayli har bir binoda hamma duch keladigan ko'plab muammolarni hal qiladi:

- mukammal issiqlik izolyatsiyaning xususiyatlari tufayli binolarda **energiya sarfini kamaytiradi**,
- qishda issiqlikni va yozda salqinlikni saqlab, **issiqlik qulayligini oshiradi**,
- akustik xususiyatlari tufayli binolarning **ichki muhitini yaxshilaydi**,
- yong'inning paydo bo'lishi va tarqalish xavfini kamaytiradigan **faolsiz yong'inga qarshi himoyani** (yong'inga chidamli eshiklar, devorlar, pollar va hokazo) **ta'minlaydi**.



O'zbekiston uchun muhim

Issiqlik izolyatsiya zamonaviy qurilish me'yorlari talab qilganidek, **energiya tejamkor binolarni yaratishda muhim tarkibiy qismi hisoblanadi**. Issiqlik izolyatsiya nafaqat odamlarning hayot sifatini yaxshilaydi, balki energiya resurslarini tejashga, ularning iste'molini kamaytirishga yordam beradi. **Bu ayniqsa O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun muhim**, chunki aholining soni taxminlarga ko'ra hozirgi 37 milliondan 2050 yilga borib 50 milliondan ortiq bo'lishi kutilmoqda.



Binolar, isitish va sovutish uchun eng yirik energiya iste'molchilardan biridir: O'zbekiston Respublikasidagi umumiy **energiya iste'molining qariyb 40 foizi ularga to'g'ri keladi**. Bugungi kunda O'zbekistondagi binolar yuqori energiya sarfi bilan ajralib turadi: ular isitish, sovutish va issiq suv ta'minoti uchun Germaniyadagi binolarga nisbatan bir kvadrat metrga deyarli ikki baravar ko'p energiya talab qiladi; yangi uy-joy qurilishida esa bu ko'rsatkich uch baravargacha yuqori bo'lishi mumkin. **Yuqori sifatli issiqlik izolyatsiya materiallaridan foydalanib energiya samaradorligini oshirish** — O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarida **xarajatlarni kamaytirish hamda binolar sifatini** Yevropa standartlari darajasiga **ko'tarishning asosli yo'lidir**.



Hamma uchun va istalgan joyda tegishli

Sifatli **issiqlik va tovush izolyatsiyasi barcha turdagi bino va inshootlar uchun muhimdir**:

- Xususiy va ko'p xonadonli uylar uchun
- Noturar binolar uchun: ofis, savdo, ko'ngilochar markazlar,
- transport markazlari, tibbiyot va ta'lim muassasalar
- Sanoat korxonalari va omborxonalar uchun

ISSIQLIK IZOLYATSIYASINI TANLASH MUHIMDIR




Issiqlik izolyatsiya materiallarini to'g'ri tanlash - nafaqat binoning xizmat muddati, balki uning foydalanuvchilari uchun ham hayot sifati, xavfsizlik, qulaylik va shinamlikka bevosita ta'sir qiladi.

O'zbekistonning keskin iqlim sharoitida ham issiqlik izolyatsiyani to'g'ri tanlash - yozi jazirama, qishi esa qahraton - uyda yoki ish joyida qulay haroratni saqlashni ta'minlaydi, shu bilan birga kommunal xizmatlar uchun xarajatlarni tejaydi.

**KNAUF INSULATION
YECHIMLARI
O'ZBEKISTON IQLIMI
VA SIZNING
QULAYLIGINGIZ
UCHUN ISHLAB
CHIQILGAN**

**Build
on us.**

KNAUF INSULATION MINERAL TOLALI ISSIQLIK VA TOVUSH IZOLYATSIYASINING AFZALLIKLARI



SOVUQ VA ISSIQDAN HIMOYA

Barcha materiallarimiz past issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyentiga ega va energiya sarfini 40% gacha kamaytirish va yil davomida tejashni ta'minlaydi, shu bilan birga yozda salqin va qish mavsumida issiqlikni saqlaydi.



SHOVQINDAN HIMOYA

Barcha materiallarimiz yoqimsiz shovqinni sezilarli darajada kamaytiradi, hamda atrofdagi fazoda yanada qulay, tinch va samarali muhitni yaratadilar.




YONG'INGA QARSHI HIMOYA

Barcha materiallarimiz binolarning yuqori darajadagi yong'in xavfsizligini ta'minlaydi.



YONMASLIK

Bizning barcha materiallarimiz yonmaydigan materiallarga kiradi (yonuvchanlik guruhi - NG, GOST 30244).



UZOQ MUDDATDA FOYDALANISH

Barcha materiallarimiz uzoq muddatli foydalanish muddatiga ega bo'lib, namlik ta'sirida osilib qolish, cho'kish va shikastlanishga chidamliligi bilan ajralib turadi, bu esa tez-tez almashtirilmasdan uzoq muddatli samaradorlikni kafolatlaydi.



XAVFSIZLIK

Bizning materiallarimiz tabiiy toshdan yasalgan va zararli tolalarni o'z ichiga olmaydi. EUCB sertifikatitsiyasi ularning biologik eruvchanligini hamda Yevropa me'yorlariga muvofiq sog'liq uchun xavfsizligini tasdiqlaydi.



MAHALLIY ISHLAB CHIQRISH

Barcha materiallarimiz O'zbekistonda ishlab chiqariladi.



TASDIQLANGAN SIFAT

Barcha materiallarimiz GOST 32314-2023 (EN 13162:2012+A1:2015) standart talablariga javob beradi.

KNAUF INSULATION ISSIQLIK VA TOVUSH IZOLYATSIYA MATERIALLARIDAN FOYDALANISH

KO'P QAVATLI QURILISH



Tomlarning issiqlik izolyatsiyasi



Shift va orayopmalarining issiqlik izolyatsiyasi



Pollarning issiqlik izolyatsiyasi



Fasad tizimlarining suvoq qatlamli issiqlik izolyatsiyasi



Shamollatiladigan fasadning issiqlik izolyatsiyasi



Binoning qismlari orasidagi devorlarning issiqlik izolyatsiyasi



Ichki pardevorlarning tovush izolyatsiyasi



Ichki bo'sh devorlarning issiqlik izolyatsiyasi



Garaj shiftlarining issiqlik izolyatsiyasi



XUSUSIY UYLAR QURILISHI



QO'LLANILISH SOHALARI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN KNAUF INSULATION ISSIQLIK IZOLYATSIYASI

Qo'llanilish sohasi (segment)		Knauf Insulation issiqlik izolyatsiya materiallari	Foydalanish bo'yicha tavsiyalar
Nishabli tomlar		EXPERT UNIVERSAL STANDARD EXPERT UNIVERSAL PLUS EXPERT UNIVERSAL PRO	● ● ●
Sinchli devorlar		EXPERT UNIVERSAL STANDARD EXPERT UNIVERSAL PLUS EXPERT UNIVERSAL PRO	● ● ●
Chordoq orayopmalari		EXPERT UNIVERSAL STANDARD EXPERT UNIVERSAL PLUS EXPERT UNIVERSAL PRO	● ● ●
Chorqirra yog'ochlar ustidagi pollar		EXPERT UNIVERSAL STANDARD EXPERT UNIVERSAL PLUS EXPERT UNIVERSAL PRO	● ● ●
Bolxonalarni to'suvchi tuzilmalar		EXPERT UNIVERSAL STANDARD EXPERT UNIVERSAL PLUS EXPERT UNIVERSAL PRO	● ● ●
Xonalar orasidagi pardevorlar		EXPERT ACOUSTIC	●
Izolyatsiya bir qatlamli bo'lib qollanilganda shamollatiladigan havo qatlamiga ega devorlar		VENTI STANDARD VENTI PLUS	● ●
Yupqa suvoq qatlamli fasad tizimlari		FACADE STANDARD FACADE PLUS	● ●
Qalin suvoq qatlamli fasad tizimlari		FACADE PRO	●
Yong'inga qarshi kertiklar (to'siqlar), shuningdek tashqi suvoq qatlamli fasad issiqlik izolyatsiya kompozitsion tizimlarida deraza va eshik o'rinlarini o'rab chiqish uchun mo'ljallangan tilimlar		FACADE STANDARD FACADE PLUS FACADE PRO	● ● ●
Orayopmalar, shiftlar		ACOUSTIC PLUS	●
Suzuvchan pollar		FLOOR	●
Tekis tomlar (pastki qatlam)		ROOF BASE STANDARD ROOF BASE PLUS	● ●
Tekis tomlar (ustki qatlam)		ROOF TOP STANDARD ROOF TOP PLUS	● ●



Tavsiya etilgan material



Foydalanishga yaroqli

KNAUF INSULATION ECHIMLARI

QO'LLANISHLAR KESIMIDA*

Segment: Yuklanmaydigan tuzilmalar


Qo'llanilishi: barcha turdagi binolarning yuklanmaydigan tuzilmalarida issiqlik va tovush izolyatsiyasi qatlami sifatida: nishabli tomlar, devorlar, bolxonalar, chordoq orayopmalari, ichki pardevorlar, barcha turdagi qoplamali pollarda yuk ko'taruvchi chorqirra yog'ochlar bo'ylab chorqirra yog'ochlar orasiga issiqlik izolyatsiya yotqizilgan holda, shamollatish va isitish tizimlari, rezervuarlar, quvurlar, havo quvurlari va sanoat uskunalarida izolyatsiya qilinayotgan sathining harorati 400°C gacha bo'lganda, shuningdek, shamollatiladigan fasadlar tuzilmalarida VENTI tamg'ali plita bilan birgalikda ikki qatlamli izolyatsiya qo'llanilganda - pastki (ichki) qatlam sifatida.



Qo'llanilish	Mahsulotning nomi	Issiqlik o'tkazuvchanligi, Wt/m²K, 10°C da, ko'pi bilan	Zichligi, kg/m³
Umumiy	EXPERT UNIVERSAL STANDARD	0,038	30
Umumiy	EXPERT UNIVERSAL PLUS	0,037	40
Umumiy	EXPERT UNIVERSAL PRO	0,035	50

Segment: Akustik yechimlar

Qo'llanilishi: barcha turdagi binolarning yuklanmaydigan tuzilmalarida issiqlik va tovush izolyatsiyasi qatlami sifatida: nishabli tomlar, tikka va qiya devorlar, bolxona xonalari, chordoq orayopmalari, ichki pardevorlar.



Qo'llanilish	Mahsulotning nomi	Tovush yutish ko'rsatkichi, dB	Zichligi, kg/m³ (±10%)
Orayopmalar, shiftlar	ACOUSTIC PLUS	43	80
Ichki pardevorlar, devorlar	EXPERT ACOUSTIC	50	35

Segment: Pollar, poydevorlar

Qo'llanilishi: „suzuvchan“ pollarning tuzilmalarida va sovuq poydevor ustidagi orayopmalarning issiqlik va tovush izolyatsiya qatlami sifatida.



Qo'llanilish	Mahsulotning nomi	Issiqlik o'tkazuvchanligi, Wt/m²K, 10°C da, ko'pi bilan	Shaklning 10% o'zgarishida siqilishga chidamlilik, kPa, kamida	Zichligi, kg/m³ (±10%)
Pollar	FLOOR	0,036	40	120

* Amaldagi standartlarga muvofiq, barcha ko'rsatkichlar ±10% og'ishni hisobga olgan holda ko'rsatilgan.

Segment: Shamollatiladigan fasadlar


Qo'llanilishi: bir qatlamli izolyatsiya qollanilganda havo tirqishli fasad tizimlarida issiqlik, tovush va yong'inga qarshi izolyatsiya qatlami sifatida va ikki qatlamli izolyatsiya qollanilganda havo tirqishli fasad tizimlarida ustki (tashqi) izolyatsiya qatlami sifatida.



Qo'llanilish	Mahsulotning nomi	Issiqlik o'tkazuvchanligi, Wt/m^2K , 10°C da, ko'pi bilan	Havo o'tkazuvchanlik darajasi $kPa*s/m^2$, kamida	Zichligi, kg/m^3 ($\pm 10\%$)
Shamollatiladigan fasadlar	VENTI STANDARD	0,036	15	70
	VENTI PLUS	0,036	15	80

Segment: Suvoq fasadlari (ETICS)

Qo'llanilishi: tashqi suvoq qatlami fasad kompozitsion (*tarkibiy qismlarning tashkil etilishi, tuzilishi va o'zaro joylashishi*) tizimlarida issiqlik izolyatsiya qatlami sifatida. Shuningdek, fasadning asosiy tekisligida yonuvchan issiqlik izolyatsiya, masalan, ko'pikli polistirol plitalar qo'llanilganda tashqi suvoq qatlamlari bo'lgan fasadning issiqlik izolyatsiya kompozitsion tizimlarida yong'inga qarshi kertiklar (to'siqlar) hamda deraza va ezhik o'rinlarini mayda qismlarini o'rab chiqish uchun ham qo'llaniladi.



Qo'llanilish	Mahsulotning nomi	Issiqlik o'tkazuvchanligi, Wt/m^2K , 10°C da, ko'pi bilan	Old yuzalarga perpendikulyar cho'zilishdagi chidamlilik, kPa , kamida	Zichligi, kg/m^3 ($\pm 10\%$)
Suvoq fasadlari	FACADE STANDARD	0,036	10	100
	FACADE PLUS	0,037	15	120
	FACADE PRO	0,037	20	140

Segment: Tomlar

Qo'llanilishi: tekis tomlarni moslash uchun issiqlik va tovush izolyatsiya qatlami sifatida. Shuningdek, tekis tomlarning ikki qatlamli izolyatsiya tizimlarida mos ravishda ustki va pastki (ichki) qatlam sifatida.



Qo'llanilish	Mahsulotning nomi	Issiqlik o'tkazuvchanligi, Wt/m^2K , 10°C da, ko'pi bilan	Shaklning 10% o'zgarishida siqilishga chidamlilik, kPa , kamida	Zichligi, kg/m^3 ($\pm 10\%$)
Tekis tomlar / pastki qatlam	ROOF BASE STANDARD	0,036	40	110
	ROOF BASE PLUS	0,036	50	120
Tekis tomlar / ustki qatlam	ROOF TOP STANDARD	0,038	60	160
	ROOF TOP PLUS	0,038	80	180

Barcha huquqlar, jumladan, fotomexanik ko'paytirish va elektron manbalarda saqlash huquqlari himoyalangan. Ushbu hujjatdagi ma'lumotlar, matn hamda rasm va suratlarni to'plash va qayta ishlashga qat'iy e'tibor qaratilgan.

Shunga qaramay, xatolarning mavjudligini butunlay istisno qilib bo'lmaydi. Nashriyotchi va muharrirlar noto'g'ri ma'lumot va uning oqibatlari uchun qonun doirasida javobgar emaslar. Nashriyotchi va muharrirlar takomillashtirish bo'yicha takliflar va va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqliklar haqida ma'lumot uchun minnatdor bo'lishadi.

Hujjatlarning eng so'nggi tahrirlari hamda mahsulotlar haqida toliq ma'lumot olish uchun har doim veb-saytimizga murojaat qiling:
<https://knauf.com/uz-UZ/knauf-insulation>

“Knauf Insulation Tashkent CA” MCHJ XK

Toshkent shahri, 100016,
Elbek ko'chasi 61

Batafsil axborot uchun aloqa:

+998 90 034 71 76, +998 90 069 71 76

info-uz@knaufinsulation.com

sales.tashkent@knaufinsulation.com